

Haqida foydali ma'lumot

Emlash

Shvetsiyadagi barcha bolalarga emlash orqali o'n ikkita jiddiy kasallikdan himoya taklif etiladi. Ushbu emlashlar Bolalarni parvarish qilish markazida (BVC) va mакtabda qilinadi.

Kichkina bolalar mакtab yoshiga yetgunga qadar emlashni bolalar mar-kazlari, bolalarni parvarish qilish mar-kazlarida (BVC) olishadi. Maktabda emlashlar o'quvchilar sog'liqni saqlash xizmatlari orqali amalga oshiriladi.

Bolalar uchun emlash dasturiga kiritilgan ayrim kasalliklar Shvetsiyada kam uchraydi, biroq dunyoning boshqa qismlarida mavjud. Emlash bu farzandingizni jiddiy bo'lishi mumkin bo'lgan ushbu kasalliklardan himoya qilishning eng samarali usuli hisobl-anadi. Bolalar uchun ushbu emlashlar bepul. Barcha emlashlar ixtiyoriyidir.

FARZANDINGIZ

• olti haftalik bo'lganda, rotavirus infek-siyasidan himoya qiladigan birinchi emlash qilinadi.

• uch oylik bo'lganda, rotavirus infek-siyasiga qarshi ikkinchi emlash qili-nadi. Bu, shuningdek, yettita boshqa kasallikka qarshi emlash qilinganda: difteriya, qoqshol, ko'kyo'tal, polio-mielit, B-turidagi gemofil tayoqchasi (Hib), pnevmokokk va gepatit B.

• besh oylik bo'lganda, bola uch oyligida avvalgi tashriflari paytida olgan yetti kasallikka qarshi emlashni takrorlash vaqt keladi.

• bir yoshga to'lganda, uch va besh oylik tashriflar paytidagi kabi kasalliklarga qarshi uchinchi marta emlanadi.

• bir yarim yoshda bo'lganda, qizamiq, parotit va qizilchaga qarshi emlash qilinadi.

• besh yoshda bo'lganda, bolalarni parvarish qilish markazida (BVC) oxirgi emlash qilinadi, bu difteriya, ko'kyo'tal va poliomielitga qarshi qayta to'dirish dozasidir.

FARZANDINGIZ

• 1-2 sinfga borganda, qizamiq, parotit va qizilchaga qarshi ikkinchi emlash qilinadi.

• 5-sinfga borganda, barcha bolalar saraton kasalligini oldini olish uchun inson papillomavirusiga (HPV) qarshi ikkita emlashni oladi.

• 8-9-sinf, difteriya, qoqshol va ko'kyo'talga qarshi oxirgi emlash qilinadi.

BOLALARНИ PARVARISH QILISH MARKAZIDA (BVC)

Iltimos, BHV hamshirangizga (bolalarni parvarish qilish hamshirasiga) farzandingiz hozirda o'zini qanday his qilayotganini aiting. Iltimos, ularga savollar bering va sizni qiziqtirayotgan masalalarni aiting.

Aksariyat emlashlar inyeksiya yo'li bilan amalga oshiriladi va ukol noqulayliklar tug'dirishi mumkin. BHV hamshirangiz sizga emlash paytida farzandingizni qanday uchlash kerakligini ko'rsatib beradi.



MAKTABDA

Maktabda emlash mакtab hamshirasi tomonidan amalga oshiriladi. Sizda yoki farzandingizda emlash haqida savollaringiz bo'lsa maktab hamshirasi bilan gaplapping.


SHVETSIYANING EMLASH DASTURI

Quyidagilar jiddiy kasalliklarning oldini olish uchun Shvetsiyadagi barcha bolalarga taqdim etiladigan emlashlardir. Bolalarni parvarish qilish markazi (BVC)

Bolalarni parvarishlash markazi (BVC)



MAKTAB



Farzandingiz quyidagi kasalliklarga qarshi himoya qilinadi

Bu yerda emlash dasturiga kiritilgan kasalliklar haqida ko'proq ma'lumot mavjud bo'lib, farzandingiz ushbu kasalliklarga qarshi emlash orqali himoyalanadi.

Rotavirus infeksiyasi - bolalarda diareya, quşish va suvsizlanishni keltirib chiqaradigan oshqozon infeksiyasidir. Ba'zi hollarda bolaga shifoxona yordami kerak bo'lishi mumkin.

Difteriya juda yuqumli va jiddiy tomoq infeksiyasi bo'lib, yurak, buyraklar va asab tizimiga hayot uchun xavfli zarar yetkazishi mumkin.

Qoqshol tuproqda va hayvonlarning ichaklarida mavjud bo'lgan bakteriyalar tufayli yuzaga keladi. Bolani hayvon tishlasa yoki uning yarasiga iflos tushsa u qoqshol bilan kasallanishi mumkin. Agar infeksiya yuqsa, bolada mushaklarning spazmlari paydo bo'ladi, yutish va nafas olish qiyinlashadi. Qoshqol odamdan odamga yuqmaydi.

Ko'kyo'tal juda yuqumli bo'lib, og'ir yo'talni keltirib chiqaradi va bir necha oy davom etishi mumkin. Chaqaloqlarda kasallik hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Poliomielit asab tizimiga zarar yetkazadi, bu esa falaj va umrbod zararga olib kelishi mumkin.

B-turidagi gemofil tayoqchasi (Hib) jiddiy infeksiyalarga olib kelishi mumkin, ayniqsa besh yoshgacha bo'lgan bolalarda. Hib meningitga olib kelishi mumkin, bu hayotga tahdid solishi yoki uzoq davom etadigan zararga olib kelishi mumkin.

Pnevmoniya otit va sinusitga olib kelishi mumkin, shuningdek pnevmoniya, sepsis va meningit kabi og'irroq kasalliklarga olib kelishi ham mumkin.

Qizamiq juda yuqumli bo'lib, yuqori isitma, yo'tal va toshma paydo bo'lishiga olib keladi. Bolada ensefalit, otit va pnevmoniya kabi asoratlar paydo bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda qizamiq o'limga olib kelishi mumkin.

Parotit juda yuqumli va asosan tuprik bezlariga ta'sir qiladi, biroq meningit va ensefalit kabi asoratlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. O'g'il bolalarda bu orxitga olib kelishi mumkin.

Qizilcha - bu odatda yengil bo'lgan infeksiya, biroq homilador ayol infeksiyalangan bo'lsa, abort qilish yoki chaqaloq og'ir tug'ma kasalliklar bilan tug'ilish xavfi katta.

Inson papillomavirusi (HPV) teri va shilliq pardalarni jarohatlaydi. Infeksiya kamdan-kam hollarda seziladi va odatda o'z-o'zidan davolaniib o'tib ketadi. Agar infeksiya davolanmasa, u hujayra o'zgarishiga olib kelishi va bachadon bo'yni saratoniga olib kelishi mumkin, shuningdek keyingi hayotda saratonning boshqa turlarini ham keltirib chiqarishi mumkin.

Gepatit B ljigarning yallig'lanishiga olib keladi. Infeksiya ko'pchilik odamlarda davolanadi, biroq ba'zida virus tanada qoladi va u yerda jigarga zarar yetkazishi yoki uzoq muddatda jigar saratoniga olib kelishi mumkin. Bolalik davrida kasallansa, xavf eng yuqori bo'ladi.

Emlash dasturi doirasida berilgan barcha emlashlar Shvetsiya sog'liqni saqlash agentligida milliy emlash reyestrida ro'yxatga olingan. Reyestr emlash dasturining maqsadga muvofiq ishlayotganligini kuzatish imkonini beradi.

Qo'shimcha ma'lumot olishni xohlaysizmi?

Siz doim bolalarni parvarish qilish markaziga va farzandingiz maktabidagi o'quvchilar salomatligi xizmatlariga murojaat qilishingiz mumkin.

